

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

3-son (2019-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2019

МУНДАРИЖА

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	7
Елена СЕМЕНОВА. Об основаниях развития интеллектуального капитала	7
Муяссар МАХМУДОВА, Дилноза БЕГМАТОВА. “Касбнинг ёмони йўқ” акидаси негизига қурилган халқ идроки	10
Азамат ОБИДОВ. Вебинар технологиялари асосида ташкил этилган курсларнинг жорий этилиши ва амалий натижалари	13
Махматмурод ШОМИРЗАЕВ. Миллий каштадўзликда фанлараро спектрал – вариатив компонентларнинг ўзига хос жиҳатлари.....	17
Gulchehra IZBULLAYEVA. Burhoniddin Rabg'uziy va uning odoḡ-axloq haqidagi qarashlari	21
G'olibjon JUMAQULOV. O'quvchilar intellektual sifatlarini tarbiyalashda geometriya fanini o'qitish texnologiyalari.....	24
Мажид ИННАЗАРОВ. Олий таълим тизимидаги ёш раҳбар кадрларнинг касбий компетентлик тамойилининг ўзига хослиги.....	27
Шаҳноза САМИЕВА. Ёшларда ижодкорлик ва креативлик қобилиятларини ривожлантиришнинг муҳим йўналишлари.....	30
Lutfillo ABDUNAZAROV. Milliy ta'lim tizimida ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash.....	33
Akbar GULBOYEV. Harakatlar strategiyasi – buyuk kelajagimizning yangi bosqichi	36
Guliyā HABIBOVA. Xalq pedagogikasi - tarbiya manbai	39
Amina RO'ZIQULOVA. O'zbek oilalarida nikoh-oila munosabatlari mustahkamligini ta'minlanishda milliy qadriyatlarning ahamiyati.....	43
Gulshan Saidnazarova. Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy madaniyatni shakllantirish omillari	46
Manzura OCHILOVA. Tasavvuf ta'limotida inson kamoloti	49
Анвар НУСПАТОВ. Бўлажак ўқитувчиларда касбий педагогик маҳоратни шакллантириш.....	53
Dildora TOSHEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalash zarurati	57
O'lmas QURBONOVA. Zamonaviy ta'lim va modul – kredit tizimi.....	61
Хусниддин ҲОМИДОВ. Талабаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш йўналишлари.....	64
Mayjuda YULDASHEVA. Ta'lim oluvchilarining salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash jarayonini modellashtirish	67
Муниса НАЙИМОВА, Баҳром МАДРИМОВ. Алишер Навоий – муסיқашунос.....	70
Ойбек ОРТИҚОВ. Мактабда тарих фанини ўқитишнинг самарадорлигини ошириш: муаммо ва ечимлар.....	72
Уйғун ЎРИНОВ. Олий таълимда ижтимоий ҳамкорлик доирасида талабанинг касбий кўникма ва малакаларини шакллантириш методикаси.....	76
Yo'lchi ABDULLAYEV. Ta'limning faol shakl va metodlarini takomillashtirish qonuniyati	80
Хусен САФОЕВ. Жисмоний тарбия ва спорт машғулотида ўқувчиларнинг баркамоллигини таъминлаш воситалари.....	83
Улуғбек МАМУРОВ. Умумий ўрта таълим мактаблари фаолиятини бошқаришда педагогик мақсадни белгилаш.....	86
Абдурафик ВАЛИЕВ. Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш усуллари ва воситалари.....	92
Абдулазиз САМАДОВ. Ўқувчиларда миллий онғни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари	95
Лазиз НУРУЛЛОЕВ. Бўлажак ўқитувчиларни таълим жараёнига технологик ёндашувга тайёрлаш.....	99
Фурқат ЖУМАЕВ. Оилада китобхонликни шакллантириш воситасида ўсмирлар маънавиятининг ўзига хос хусусиятлари	103
Тоҳир НАЗАРОВ. Тарбиявий омиллар воситасида ҳарбий хизматчи хотин-қизлар касбий фаолияти самарадорлигини ошириш.....	107
Аслиддин ЎЗОҚОВ. Талабаларнинг ватанпарварлик кўрсаткичлари даражасининг шаклланганлиги ва ривожланганлигини аниқлаш мезонлари	110
ТИЛ ВА АДАБИЁТ	115
Таваккал ЧОРИЕВ. Жомий ва Навоий лирикасида доминантали лексемалар ва уларнинг услубий бўёқлари	115
Nigora KAYUMOVA. learner centered approach is an effective method in education	123
Сауле ИШАНОВА. Передача фразеологических единиц в переводе	128
Mahbuba MUHAMMADOVA. Hasanxo'ja Nisoriyning Alisher Navoiy haqida adabiy-tanqidiy qarashlari..	131



Akbar GULBOYEV
Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrası dotsenti
pedagogika fanlari nomzodi,

HARAKATLAR STRATEGIYASI – BUYUK KELAJAGIMIZNING YANGI BOSQICHI

Maqolada harakatlar strategiyasining mazmuni, mohiyati va ta'lim tizimini isloh qilish muammolari to'g'risida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: mustaqillik, harakatlar strategiyasi, globallashtirish.

В статье рассматриваются содержание, сущность стратегии действий и проблемы реформирования системы образования.

Опорные слова: независимость, стратегия действий, глобализация.

The article discusses the content, the essence of the strategy of action and the problems of reforming the education system.

Supporting concepts: independence, strategy of action, globalization.

Istiqloq yillarida bosib o'tilgan taraqqiyot yo'li va orttirilgan davlatchilik tajribasini xolisona baholashdan, erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatimiz taraqqiyotini jadallashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zining boy tarixiga tayanib, porloq istiqbolini qurayotgan davlat, hamjihat xalq, eng tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida dunyoga tanildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan, hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar, amaliy sa'y-harakatlar yangi taraqqiyot marralarini egallash, zamon shiddatiga mos tarzda rivojlanish, xalqimiz manfaatlarini ta'minlashga qaratilgani bilan g'oyat ahamiyatlidir.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimiz hayotida katta voqea bo'ldi. Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Aholi farovonligini ta'minlash, bandlik, salomatlikni muhofaza qilish, uy-joy masalalari qatoridan ta'lim-tarbiya tizimini taraqqiy ettirish masalasi ham o'rin olgan. Farmonga binoan ta'lim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirishda qator fanlar, jumladan, chet tillar, matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, shart-sharoitlarini tubdan yaxshilash, pedagog va mutaxassislarning malakasini yuksaltirish, maktabgacha ta'limga bolalar qamrovini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Xalq ta'limi vazirligi jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, teran fikr va qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, jamiyatda ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni bajarishni rejalashtirmoqda.

Birinchidan, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarni zamon talablari asosida takomillashtirish lozim. Ya'ni, ta'lim tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqiladi hamda "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizom"ning yangi tahrirda qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatiga oid amaldagi me'yoriy hujjatlar ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini yanada oshirish nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilib, mazmunan boyitiladi.

Ikkinchidan, o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik, yurt taqdiriga daxldorlik, qonunlarga hurmat ruhida o'stirish, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi ma'naviy immunitetini mustahkamlash, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega qilib tarbiyalash borasida qator ustuvor vazifalar amalga oshiriladi. Shu maqsadda o'qituvchilar, hayotiy tajribaga ega keksalar, mahalla faollari ko'magida o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida kitobxonlikni, mutolaaning inson kamolotidagi beqiyos o'rni targ'ib etishga alohida ahamiyat beriladi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan

hamkorlikda ta'lim muassasalarida taniqli yozuvchi, shoirlar bilan onlayn muloqotlar, uchrashuvlar tashkil etiladi. O'zbekiston matbuot va axborot agentligi bilan hamkorlikda badiiy adabiyotlarning elektron nusxalari keng miqyosda portallarga joylashtirib boriladi. Umumta'lim maktablaridagi kutubxonalar va axborot-resurs markazlarining kitob fondi yangi badiiy va ensiklopedik adabiyotlar bilan boyitiladi.

Bolalarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish, turli nufuzli musobaqa va bellashuvlar, xususan, "Umid nihollari"da qatnashuvchi sportchi-o'quvchilarning safini kengaytirish, ularning xalqaro tanlovlarda samarali ishtirokini ta'minlash choralari ko'riladi.

Uchinchidan, umumta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishning zamonaviy metodologiyasini yaratish va amaliyotga joriy etish asosida ta'lim-tarbiya sifati tubdan takomillashtiriladi. Bu yo'nalish nihoyatda keng qamrovli bo'lib, uzviylik, uzluksizlik hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari (DTS) amaliyotga joriy etiladi.

Aytish joizki, ayni paytda uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatish tajribasidan kelib chiqib, umumta'lim fanlarining o'qitilishini takomillashtirish, darslik va o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish maqsadida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlarining takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari tayyorlandi. Mazkur muassasalarda uzviy o'qitiladigan 18 ta fan bo'yicha darslik va o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda.

Tavsiya etilayotgan yangi mazmundagi DTSga asosan ta'lim umumta'lim fanlarini o'rganishning boshlang'ich darajasi – A1 dan to umumta'lim fanlarini o'rganishning ixtisoslashtirilgan darajasi – B1+ gacha bo'lgan bosqichlarda amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kommunikativ, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy hamda matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan foydalanish kompetensiyalari shakllantirib boriladi.

O'qitish jarayoniga xalqaro ta'lim talablariga mos bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim metodologiyasi joriy etilib, fanlar yo'nalishida o'qitish muammolariga bag'ishlangan forumlar muntazam tashkil etib boriladi.

Yuqori sinflar uchun chet tili darslik-majmualari takomillashtiriladi, pedagoglarning dars jarayonida elektron qo'llanma va darsliklar, virtual laboratoriya ishlari, ta'limga oid o'yinlar hamda boshqa qo'shimcha elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanishi yo'lga qo'yiladi.

Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun umumta'lim maktablari o'qituvchilari, xususan, aniq va tabiiy fanlar o'qituvchilarining uzluksiz ravishda kasbiy mahoratini oshirib borish tizimi yo'lga qo'yiladi.

To'rtinchidan, yetuk, mahoratli o'qituvchilarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini isloh qilish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish choralari ko'riladi.

Buning uchun xalq ta'limi tizimidagi rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablari takomillashtiriladi. O'quv reja va dasturlar mazmuni qayta ko'rib chiqilib, zamon talabiga moslashtiriladi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimidagi professor-o'qituvchilar sifat tarkibi yosh, ilmiy salohiyatga ega kadrlar bilan to'ldiriladi. Pedagogika institutlarida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasining yangi o'quv dasturlari yaratiladi. Beshinchidan, maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish muhim strategik vazifalardandir.

Dastur doirasida 5-6 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarni yaratish va rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshiriladi. Mamlakatimiz maktabgacha ta'lim muassasalarida 6 ming 100 qisqa muddatli guruh tashkil etiladi. Ularni, birinchi navbatda, qishloq joylarda tashkil etishga e'tibor qaratiladi. Bunday guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Shu asosda har yili 305 mingdan ortiq 5-6 yoshdagi bolani maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 3-6 yoshli bolalarning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash va ular bilan tushuntirish ishlarini olib borish orqali maktab ta'limiga tayyorlashning muqobil tizimi ham joriy etiladi. Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovi 1,5 barobarga oshadi. 2021-yilga kelib mamlakatimizda maktabgacha ta'lim muassasalari 1 million 109 mingdan ortiq bolani qamrab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. 2017-yilda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimi uchun muqobil dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinadi. Yangilangan dasturlar bolalarni maktabga yanada sifatli tayyorlashga, ularning intellektual qobiliyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini yuksaltirishga, oldingidan farqli ravishda yozish va o'qishni yanada yaxshiroq o'rganishga xizmat qiladi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish Dasturining ishlab chiqilishi mamlakatimizning strategik maqsadlariga erishishda juda katta ahamiyatga ega. Bunda akademik sohada, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, o'quv jarayonini tashkil etish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish nazarda tutilmoqda. Natijada bosqichma-bosqich ularning mustaqilligi ta'minlanadi. Yana bir masala – oliy ma'lumotli kadrlarimizning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish.

Bugun dunyoning rivojlangan davlatlari kadrlar tanlashda 1999-yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga tayanmoqda. Shu bois mamlakatimizning mazkur xalqaro hujjatga qo'shilish masalasi ko'rib chiqiladi. Bu bilan

milliy oliy ta'lim tizimi jahon amaliyoti bilan uyg'un rivojlanadi, kadrlar tayyorlash sifati keskin oshadi. Harakatlar strategiyasida yuridik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish ham ko'zda tutilgan. Bunda universitetimizning o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha vakolatlarini kengaytirish, universitetning jamoatchilik boshqaruv organi – Homiylik kengashini tuzish rejalashtirilmoqda. Harakatlar strategiyasi bilan mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada barqaror ta'minlash yo'lidagi eng dolzarb masalalar yechimi, ularga erishish yo'llari va usullari belgilab olindi. Xalqimiz shu yagona maqsad yo'lida yanada qat'iy ishonch va katta g'ayrat-shijoat bilan mehnat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak", – degan fikrlari faoliyatimizda muhim mezonga aylandi. Zero, sohamiz xodimlarining zimmasidagi vazifalarni bajarishga katta mas'uliyat bilan yondashishi, ishlarni qonuniy muddatlarda ko'rib chiqib, adolatli va asosli qarorlar qabul qilishi bugungi kun talabidir.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturida qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta'minlashi kerak bo'lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalarning korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Bunday chora-tadbirlar sudlarning odil sudlovni amalga oshirish, fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash borasidagi faoliyati samaradorligini yanada oshiradi.

Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlari kengaytirilishi ham sohada sezilarli yutuqlarga yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasiga mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritilgan.

Loyihalar tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi. Natijada ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Yurtdoshlarimiz yuksak faollik ko'rsatib, olib borilayotgan islohotlarga befarq emasliklarini namoyon qildi. Natijada har jihatdan pishiq va puxta ishlangan hujjat qabul qilindi. Bu mamlakatimizni yanada rivojlantirishda va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Harakatlar strategiyasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va demokratlashtirish, davlat xizmati tizimini takomillashtirish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, davlat boshqaruvi sohasida zamonaviy mutaxassis kadrlar tayyorlash va ularning kasb malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratayotgani o'z ifodasini topgan. Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, mamlakatimizning olis hududlarini ham elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi nufuzini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'limni sifat jihatdan yanada boyitish borasida qator chora-tadbirlar belgilangan. Tibbiyot maskanlari, xususan, birlamchi tibbiyot muassasalari, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, patronaj xizmati, tez tibbiy yordam tizimi faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish borasida aniq tadbirlar olib boriladi. Prezidentimiz rahnamoligida aholining tibbiy madaniyatini oshirish, jamiyatimizda har tomonlama sog'lom oilalarni qaror toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining soha xodimlari bilan har uchrashuvda bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar keng muhokama qilinmoqda, zarur topshiriqlar berilmoqda. Harakatlar strategiyasi tibbiyot sohasini izchil rivojlantirish, soha xodimlarining kasb malakasi va mas'uliyatini yanada oshirishda ham muhim dasturilamaldir.

Umuman olganda, Prezidentimizning mazkur farmonida belgilab berilgan ustuvor vazifalar xalq ta'limi tizimini jadal rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Farzandlarimizning har tomonlama yetuk, sog'lom va barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi esa yurtimizdagi minglab ota-onalarni quvontirishi barobarida davlatimizning kelajakdagi yuksak taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lishi shubhasiz.

Adabiyotlar

1."2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi."// "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 8-fevral.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori."// "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 21-aprel.